

## XALQARO MEHNAT MIGRATSIYASINI TARTIBGA SOLISHDA XALQARO TASHKILOTLARNING ROLI

**Sherzod Ergashbayev**

*Ilmiy rahbar:*

**Karimova Kumushbibi Xasan qizi**

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiasi Universiteti 3-bosqich talabasi Elektron pochta:  
kumushkarimova2332@gmail.com Telefon: +998957002903*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada xalqaro mehnat migratsiyasining zamonaviy tendensiyalari, uni tartibga solishda xalqaro tashkilotlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMTk), Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va mintaqaviy institutlarning mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish, xavfsiz migratsiyani ta'minlash hamda davlatlararo hamkorlikni kuchaytirishdagi faoliyati yoritiladi. Tadqiqot natijasida xalqaro tashkilotlarning normativ-huquqiy bazani shakllantirish va amaliy mexanizmlarni joriy etishdagi roli muhim ekanligi asoslab beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *mehnat migratsiyasi, xalqaro tashkilotlar, migrantlar huquqlari, XMT, XMTk, global boshqaruv.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются современные тенденции в международной трудовой миграции, роль и значение международных организаций в ее регулировании. В частности, освещается деятельность Международной организации труда (МОТ), Международной организации по миграции (МОМ), Организации Объединенных Наций (ООН) и региональных институтов по защите прав трудовых мигрантов, обеспечению безопасной миграции и укреплению межгосударственного сотрудничества. Исследование обосновывает важную роль международных организаций в формировании нормативно-правовой базы и внедрении практических механизмов.*

**Ключевые слова:** *трудовая миграция, международные организации, права мигрантов, МОТ, МОМ, глобальное управление.*

**Abstract:** *This article analyzes modern trends in international labor migration, the role and importance of international organizations in its regulation. In particular, the activities of the International Labor Organization (ILO), the International Organization for Migration (IOM), the United Nations (UN) and regional institutions in protecting the rights of labor migrants, ensuring safe migration, and strengthening interstate cooperation are highlighted. The study substantiates the important role of international organizations in forming a regulatory framework and introducing practical mechanisms.*

**Keywords:** *labor migration, international organizations, migrant rights, ILO, ILO, global governance.*

## KIRISH

Bugungi globalashuv sharoitida xalqaro mehnat migratsiyasi jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Turli mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar, ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning notekis taqsimlanishi, demografik omillar hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar aholining mehnat faoliyati bilan bog'liq migratsiyasini jadallashtirmoqda.

Xalqaro mehnat migratsiyasi millionlab insonlar uchun daromad manbai bo'lish bilan birga, donor va qabul qiluvchi davlatlar iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi jarayonlari bir qator murakkab muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, noqonuniy migratsiya, mehnat ekspluatatsiyasi, inson huquqlarining buzilishi, ijtimoiy himoya tizimlarining yetarli darajada ishlamasligi kabi masalalar xalqaro hamjamiyat oldida dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, migrant ishchilarning huquqiy maqomi, mehnat sharoitlari va ijtimoiy kafolatlari masalasi ko'plab davlatlarda yetarlicha tartibga solinmagan. Bu esa mehnat migratsiyasini faqat milliy darajada emas, balki xalqaro miqyosda boshqarishni taqozo etadi.

Xalqaro mehnat tashkiloti tadqiqotlariga ko'ra, mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish va ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, XMT hujjatlarida migrant ishchilarga nisbatan kamsitilmaslik, teng mehnat sharoitlari va ijtimoiy himoya tamoyillari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [1]. Ushbu tamoyillarni amalga oshirishda xalqaro tashkilotlarning muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi roli alohida ahamiyatga ega.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham migratsiya masalasini global muammo sifatida ko'rib, uni kompleks yondashuv asosida tartibga solishni taklif etadi. BMT tomonidan qabul qilingan "Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya bo'yicha Global kelishuv"da mehnat migratsiyasini boshqarishda davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish, migrantlar huquqlarini himoya qilish va noqonuniy migratsiyaning oldini olish zarurligi ta'kidlangan [2]. Ushbu hujjat xalqaro tashkilotlarning migratsiya sohasidagi faoliyatini yagona strategik yo'nalishga birlashtirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, xalqaro mehnat migratsiyasini tartibga solishda xalqaro tashkilotlarning o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shu masalalar yoritilib, xalqaro institutlarning normativ-huquqiy, tashkiliy va amaliy faoliyati tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Mintaqalarda yani global ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda mehnat migratsiyasi inson resurslarini xalqaro darajada qayta taqsimlash vositasiga aylanib bormoqda. Bu esa har bir davlatdan ushbu jarayonni aniq strategik yondashuvlar bilan boshqarishni, migratsion siyosatni davlat manfaatlariga mos tarzda yo'naltirishni talab etadi. Mehnat migratsiyasi nafaqat iqtisodiy, balki demografik, madaniy, siyosiy va xavfsizlik jihatlaridan ham dolzarb masalaga aylangan. Shuning uchun uni nazorat

ostiga olish va samarali tartibga solish har bir suveren davlatning ichki siyosatida alohida o'rin tutadi. Avvalo, mehnat migratsiyasini davlat miqyosida tartibga solishning huquqiy asoslarini ko'rib chiqish lozim.

Aksariyat davlatlarda migratsiya bilan bog'liq qonunchilik tizimi alohida qonunlar, farmonlar, nizomlar, kvotalar, vizalar, ish ruxsatnomalari va soliqqa oid normalar orqali shakllantirilgan. Bu borada Yevropa Ittifoqi, Kanada, AQSh, Yaponiya, Avstraliya kabi mamlakatlar tajribasi alohida e'tiborga loyiq. Ular migratsion oqimlarni tartibga solish maqsadida tizimli va qat'iy siyosat yuritmoqda, yuqori malakali kadrlar uchun alohida imtiyozlar yaratilmoqda, kam malakali ishchilar uchun esa kvotalar orqali mehnat bozorini himoya qilish mexanizmlari joriy qilingan. Masalan, Buyuk Britaniyada "Tier" tizimi asosida chet ellik ishchilarni qabul qilish mexanizmi ishlaydi, bu tizimda kasb turi, maosh miqdori, til bilimi, tajriba darajasi asosiy mezon sifatida olinadi. Bunday tizimlar migratsiyani nazorat qilishda ancha samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Boshqa tomondan, mehnat migratsiyasini global miqyosda tartibga solish xalqaro tashkilotlar va ko'p tomonlama kelishuvlar doirasida amalga oshirilmoqda. BMTning Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM), Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), Jahon banki, YeXHT kabi nufuzli institutlar ushbu jarayonda faol ishtirok etib, migrantlar huquqlarini himoya qilish, xavfsiz va qonuniy migratsiyani ta'minlash, migratsiyaning ijobiy iqtisodiy ta'sirlarini kuchaytirish, salbiy oqibatlarini esa minimallashtirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqmoqda.

BMT tomonidan qabul qilingan "Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya bo'yicha global kelishuv" ushbu yo'nalishdagi muhim xalqaro hujjat hisoblanadi. Unda davlatlar migratsion oqimlarni o'zaro hamkorlikda boshqarish, migrantlarning asosiy inson huquqlarini himoya qilish, mehnat bozorlarini muvozanatlash kabi tamoyillarga rioya qilishga chaqirilgan.

O'zbekiston Respublikasining migratsion siyosati ham so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Avvallari asosan "chiqish" migratsiyasi kuchli bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda davlatimiz bu jarayonni tizimli tarzda boshqarish, migrantlarni rasmiylashtirish, ularni xorijda huquqiy, tibbiy, ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, qaytgan migrantlarni reintegratsiya qilish kabi muhim bosqichlarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni yo'lga qo'yimoqda. Xususan, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, elchixonalar huzuridagi mehnat attachelari instituti, Davlat xizmatlari markazlarida migrantlarga xizmat ko'rsatish, xorijiy tashkilotlar bilan memorandumlar imzolash orqali xorijda ishlash huquqini rasmiylashtirish tizimi yo'lga qo'yildi. Migrantlar huquqlarini himoya qilish maqsadida xorijda vaqtincha yashayotgan fuqarolarimiz uchun konsullik yordami, bepul huquqiy maslahatlar, tibbiy sug'urtalar taklif etilmoqda.

Shuningdek, "Ishga marhamat" monomarkazlari orqali xorijga ketishdan oldin mehnat migrantlari kasb va til bo'yicha tayyorlanmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama mehnat shartnomalarini imzolash orqali qonuniy migratsiyani kuchaytirish va noqonuniy migratsiyani kamaytirishga xizmat

qiluvchi mexanizmlarni joriy etmoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Janubiy Koreya, BAA kabi davlatlar bilan tuzilgan bitimlar bu borada aniq huquqiy asoslar yaratmoqda. Shu bilan birga, migratsiyaning ijtimoiy oqibatlari – ya'ni ajralgan oilalar, yoshlarning nazoratsiz qolishi, madaniy identitetning zaiflashuvi, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik kabi muammolarni bartaraf etish bo'yicha ham choralar ko'rilmogda. Migratsiya jarayonini tartibga solishda nafaqat davlat idoralari, balki nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlarining ham faol ishtiroki zarur sanaladi. Shuningdek, yuqori malakali mutaxassislar – ya'ni intellektual migratsiya masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Bu toifadagi fuqarolarni yo'qotish, ya'ni "miya oqimi" rivojlanayotgan mamlakatlar uchun salbiy iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Shu bois, intellektual migratsiyani cheklamasdan, balki uni mamlakat manfaati uchun qayta yo'naltirish – ya'ni xorijda tahsil olib yoki ishlayotgan yurtdoshlarimizni milliy rivojlanish jarayonlariga jalb qilish muhimdir. Buning uchun ularni qo'llabquvvatlash dasturlari, ilmiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlari, startap tashabbuslarni moliyalashtirish kabi mexanizmlar ishlab chiqilishi kerak.

O'zbekistonda mehnat migratsiyasini davlat darajasida tartibga solish bo'yicha amalga oshirilayotgan harakatlarni quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

-Huquqiy va institutsional asoslarning mustahkamlanishi – maxsus qonunlar, prezident farmonlari va hukumat qarorlari orqali migratsiyani nazorat qilishning zamonaviy mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

-Mehnat migratsiyasini rasmiylashtirish va xavfsizlashtirish tizimi – xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama shartnomalar, ish ruxsatnomalari va diplomatik yo'nalishlar orqali yurtdoshlarimiz qonuniy va huquqiy asosda ishga yuborilmoqda.

-Xorijdagi mehnat migrantlariga ko'mak ko'rsatish – elchixonalar huzurida ishchi guruhlar, huquqiy maslahatlar, tibbiy yordam va zarur hollarda evakuatsiya choralari ko'rish mexanizmlari faoliyat yuritmoqda.

-Migrantlarni tayyorlash va qayta integratsiya qilish – "Ishga marhamat" monomarkazlari orqali til, kasb va madaniy muhitga moslashuv bo'yicha tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda, qaytgan migrantlar esa ijtimoiy-iqtisodiy hayotga qayta moslashtirilmoqda.

-Xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvi – BMT, ILO, IOM kabi tashkilotlar bilan yaqin aloqalar o'rnatilib, xalqaro tajribalar milliy siyosatga moslashtirilmoqda.

Ushbu chora-tadbirlarning barchasi O'zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga solish, migrantlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni jamiyat hayotiga samarali jalb etish, shuningdek, migratsiyaning salbiy oqibatlarini minimallashtirishga xizmat qilmoqda.

1-jadval:

O'zbekiston Respublikasida mehnat migratsiyasini tartibga solish bo'yicha SWOT tahlil:

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
-----------------------------	----------------------------

Mehnat migratsiyasini tartibga solish bo'yicha qonunlar va normativ hujjatlar ishlab chiqilgan.	Migrantlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi to'liq emas, bu esa monitoringni qiyinlashtiradi.
Agentlik orqali rasmiy ishga yuborish tizimi yo'lga qo'yilgan.	Ko'plab migrantlar o'z huquq va majburiyatlarini to'liq bilmaydi.
Migrantlarni kasbga tayyorlash va malaka oshirish markazlari faoliyat yuritmoqda.	Qaytgan migrantlarni ish bilan ta'minlash va ijtimoiy moslashtirishda qiyinchiliklar mavjud.
Xorijiy davlatlar bilan mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlik shartnomalari tuzilgan.	Ko'plab fuqarolar rasmiy kanallar orqali emas, balki norasmiy yo'llar bilan ishga chiqmoqda.
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
ILO, IOM kabi tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash.	Qabul qiluvchi davlatlardagi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar migrantlarga ta'sir qilishi mumkin.
Migratsiya jarayonlarini raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish.	Migratsiya natijasida oilaviy ajralishlar, bolalarning qarovsiz qolishi kabi muammolar yuzaga kelmoqda.
Migrantlarni xalqaro mehnat bozoriga mos kasblarga tayyorlash.	Ba'zi xorijiy davlatlarda migrantlar og'ir mehnat sharoitlariga duch kelmoqda.
Migratsiya orqali orttirilgan tajriba va mablag'larni ichki iqtisodiyotga yo'naltirish.	Norasmiy vositachilar orqali ishga yuborilish holatlari mavjud.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston Respublikasida mehnat migratsiyasini davlat va global miqyosda tartibga solish masalasi bugungi kunda dolzarb va strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan biridir.

O'zbekiston hukumati ushbu jarayonni tizimli yo'lga qo'yish, mehnat migrantlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni xorijda qonuniy, xavfsiz va munosib sharoitda ish bilan ta'minlash maqsadida bir qator institutsional va tashkiliy choralarni amalga oshirmoqda.

Jumladan, "Ishga marhamat" monomarkazlarining tashkil etilishi, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyatining kuchaytirilishi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda qonuniy ishga yuborish mexanizmlarining yo'lga qo'yilishi shular jumlasidandir. Biroq amalga oshirilgan choralar bilan bir qatorda, hali ham hal etilishi zarur bo'lgan muammolar mavjudligini e'tirof etish zarur.

Ular qatoriga migrantlarning huquqiy savodxonligining pastligi, norasmiy vositachilar faoliyati, qaytgan migrantlarning jamiyatga moslashuvi va ularning iqtisodiyotga integratsiyasidagi bo'shliqlar kiradi.

Shuningdek, mehnat migratsiyasi statistikasi va monitoring tizimining to'liq raqamlashtirilmagani, mavjud ma'lumotlar bazasining mukammal emasligi strategik qarorlar qabul qilishda muayyan to'siqlarni yuzaga keltiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. International Labour Organization. ILO Global Estimates on International Migrant Workers. – Geneva: ILO, 2018. – 82 p.
2. United Nations. Global Compact for Safe, Orderly and Regular Migration. – New York: United Nations, 2018. – 34 p.